



SIRDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI (2019 yil yanvar-fevral oylari)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 394,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 26,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 12,4 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 367,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 1,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 36,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 %ga ko'paygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so'm)



Chakana savdo tovar aylanmasida katta hajmga ega bo'lgan Guliston shahri (144,4 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (68,3 mlrd.so'm), Yangiyer shahri (37,0 mlrd.so'm), Mirzaobod tumani (31,7 mlrd.so'm), ijobiy tasirini ko'rsatmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,4 % ga ko'paydi va 26,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,7 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 367,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan 1,4 % ga o`sdi. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,3 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi ulishi, (%)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulishi 2015 yil yanvar-fevral oylari 91,7 % ni tashkil qilgan bo'ssa 2019 yilga kelib kichik tadbirkorlikning ulishi 93,3 % ga yetdi. Kchik tadbirkorlika yaratilgan imkoniyatlar o'z natijasini bermoqda.

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulishi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Xovos t (99,3 %), Shirin sh (98,9 %), va Sardoba (97,1%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 6,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston shahrida (11,1 %), Yangiyer shahri (5,3 %) va Mirzaobod tumanlari (4,6 %) kuzatildi.

Chakana savdo aylanmasi va kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	394,3	102,1	367,9	101,4
Guliston sh.	144,4	101,3	128,4	102,0
Shirin sh	6,2	100,3	6,1	101,6
Yangiyer sh	37,0	101,3	35,1	100,6
tumanlar:				
Boyovut	22,0	99,7	21,2	100,6
Guliston	16,0	104,4	15,4	101,7
Mirzaobod	31,7	104,1	30,3	101,5
Oqoltin	20,1	103,4	19,3	100,4
Sardoba	18,2	103,4	17,7	101,2
Sayxunobod	14,4	105,8	13,4	101,8
Sirdaryo	68,3	102,6	65,1	101,4
Xovos	16,0	100,5	15,9	100,9

Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, yanvar oyiga (%)



2019 yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 479,2 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 % ga kamaygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilga nisbatan o'rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Guliston shahri (1630,4 ming so'm), Yangiyer shahri (882,0 ming so'm) va Sirdaryo tumanida (547,4 ming so'm) kuzatildi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Xovos tumanida (172,4 ming.so'm), Boyovut tumanı (174,1 ming.so'm) va Sayxunobod tumanida (191,2 ming so'm) qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	479,2	100,5
Guliston sh.	1630,4	100,5
Shirin sh	333,0	99,8
Yangiyer sh	882,0	99,4
tumanlar:		
Boyovut	174,1	98,0
Guliston	229,2	102,0
Mirzaobod	450,2	101,9
Oqoltin	398,4	101,8
Sardoba	284,0	101,4
Sayxunobod	191,2	104,0
Sirdaryo	547,4	101,2
Xovos	172,4	99,0

Jumladan, 2019 yilning yanvar-fevral oylari chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,4 %ni tashkil etib, 9,4 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 6,2 % o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


SIRDARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-fevral oylari)

Yanvar-fevral oylari viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 198,8 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 18,7 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko`ra, 116,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 58,4 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Yangiyer va Shirin shahrida (100,0 %) va Sirdaryo tumanida (91,3 %) yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalarning
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar 2019 yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, 82,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 53,9 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 32,1 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Sardoba tumanida (98,2 %), Xovos tumanida (91,5 %) va Boyovut tumanida (91,2 %) yuqori bo'lgan.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	198,8	118,7	82,8	153,9	116,0	102,0
Guliston sh.	91,3	119,8	37,0	161,7	54,3	101,8
Shirin sh	0,1	101,7	-	-	0,1	101,7
Yangiyer sh tumanlar:	3,5	101,7	-	-	3,5	101,7
Boyovut	10,4	152,1	9,4	159,6	1,0	102,1
Guliston	3,8	122,5	2,3	143,4	1,5	100,8
Mirzaobod	11,5	125,4	2,5	5,8m	9,0	102,8
Oqoltin	3,1	188,3	2,4	2,6m	0,7	100,8
Sardoba	10,8	113,5	10,6	113,7	0,2	101,9
Sayxunobod	17,1	159,2	11,1	231,8	6,0	100,7
Sirdaryo	43,2	100,0	3,8	79,8	39,4	102,4
Xovos	4,0	112,4	3,7	113,4	0,3	102,7

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining ulishi, (%)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida (46,0 %), Sirdaryo tumanida (21,7 %), Sayhunobod tumanida (6,9 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:71-230-86-34